



## IN THE FIRST YEARS AFTER WORLD WAR II, THE EDUCATION SYSTEM IN THE KASHKADARYA REGION

*Elyorjon Karimov*

*PhD student*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [elyorjonkarimov45@gmail.com](mailto:elyorjonkarimov45@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** public education, Soviet system, communist ideology, marksism-meninism, school, technical school, institute, teaching staff, national economy.

**Received:** 27.11.24

**Accepted:** 29.11.24

**Published:** 01.12.24

**Abstract:** In this article, an attempt was made to show the transition of social life to the path of peaceful construction as a result of the end of the Second World War with the victory of the Soviet Union, based on the state of the education system of Kashkadarya region. The achievements and shortcomings of the regional education system were highlighted on the basis of several periodicals and archival data.

## IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DASTLABKI YILLARDA QASHQADARYO VILOYATIDA TA'LIM TIZIMI

*Elyorjon Karimov*

*Tayanch doktorant*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [elyorjonkarimov45@gmail.com](mailto:elyorjonkarimov45@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** xalq ta'limi, sovet tuzumi, kummunistik mafkura, marksizm-leninizm, maktab, texnikum, institut, pedagog kadrlar, xalq xo'jaligi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ikkinchiji jahon urushining Sovet Ittifoqining g'alabasi bilan tugashi natijasida ijtimoiy hayotning tinch qurilish yo'liga o'tishi Qashqadaryo viloyati ta'lim tizimini holati asosida ko'rsatib berishga harakat qilindi. Viloyat ta'lim tizmini yutuq va kamchiliklari bir qancha davriy nashrlar va arxiv ma'lumotlari asosida yoritildi.

## СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

**Эльярджон Каримов**

*Докторант*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [elyorjonkarimov45@gmail.com](mailto:elyorjonkarimov45@gmail.com)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** народное образование, советский строй, коммунистическая идеология, марксизм-ленинизм, школа, техникум, институт, профессорско-преподавательский состав, народное хозяйство.

**Аннотация:** В данной статье на примере состояния системы образования Кашкадаргинской область предпринята попытка показать переход общественной жизни на путь мирного строительства в результате окончания Второй мировой войны с победой Советского Союза. На основе ряда периодических изданий и архивных данных освещены достижения и недостатки региональной системы образования.

Ikkinchi jahon urushi Sovet Ittifoqining g‘alabasi bilan tugaganidan so‘ng, mamlakat xalq xo‘jaligini tiklash va yanada rivojlantirish uchun umumxalq kurashi bilan bir qatorda Kommunistik partiya xalq ta’limi xodimlarini yetishtirib chiqarish va ularni qayta tayyorlashni bo‘yicha bir qator ishlarni boshladi. Chunki aynan maktab tizimi Kompartiya va sovet hukumati foydasiga ishlaydigan, kommunistik mafkura bilan “qurollantirilgan”, o‘z ishini yaxshi biladigan, sotsializm va kommunizmning faol quruvchilari bo‘lgan yuz minglab bo‘lajak mutaxassislarini berishi kerak edi. Qashqadaryo viloyatida ham bu borada bir qator ishlarni amalga oshirildi. 1946–1950-yillarga mo‘ljallangan to‘rtinchchi besh yillikning asosiy vazifasi urushda vayron bo‘lgan joylarni tiklash va urushdan oldingi darajaga yetish va undan o‘zib ketishdan iborat edi. Besh yillik rejada xalq maorifini rivojlantirishga ham katta e’tibor berilgan edi. Bu davrda boshlang‘ich ta’limdan yetti yillik majburiy ta’limga o‘tish, o‘rta maktablar sonini ko‘paytirish ko‘zda tutilgan edi. 1945-yilning 19-iyulida O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti “Qashqadaryo viloyatidagi maktablarda o‘qitish ishini yaxshilash to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorda viloyat maktablarida yoshlarga ta’lim-tarbiya berish sohasidagi kamchiliklarni tugatish choralaritadbirlari va kelajakdagisi qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar belgilab berildi. Viloyat maorifchilarini mazkur qarorda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish yo‘lida harakat qilib, bir muncha natijalarga ham erishdilar.

Maktablarni ta’mirlash va yangilarini qurishga kerak bo‘lgan mablag‘lar mahalliy byudjetdan ajratildi. Agar 1942-yilda xalq maorifiga viloyat byudjetidan 22916 ming rubl ajratilgan bo‘lsa, 1946-yilga kelib xalq maorifiga 43704 ming rubl ajratildi. Bu ko‘rsatkich 1949-yilga kelib 65900 ming rublni tashkil etdi [1]. Viloyat mehnatkashlari ham maktablarni urushdan

keyingi davrga moslab tayyorlashga kirishdilar. Ularning kuchi va mablag'i bilan 66 maktab kapital ta'mirlanib, 27 maktab yangidan qurildi

Qashqadaryo viloyati maktablarida pedagog kadrlar muammosining taqchilligi haqida urushdan keyingi birinchi yillarda mavjud bo'lgan quyidagi faktlar dalolat beradi. 1945–1946-o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida 2682 nafar o'qituvchining 71 nafari oliv ma'lumotli, 79 nafari to'liq bo'lmagan oliv ma'lumotli, 994 nafari o'rta, 1538 nafari to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotli kadrlar edi. 1945–1946-yillarda Qashqadaryo maktablarida 667 nafar o'qituvchi yetishmasdi[2] va bularning barchasi maktablarning ta'lim-tarbiya ishlariiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Bunday vaziyatda pedagogik kadrlarning keskin tanqisligini bartaraf etish va ularning malakasini oshirishda asosiy rolni pedagogika oliv o'quv yurtlari, texnikumlar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash kurslari o'ynashi kerak edi.

1945–1946-o'quv yilidan boshlab Qarshi shahrida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni qayta tayyorlash kurslari Buxoro pedagogika instituti filialiga aylantirildi. Ushbu filial negizida 1949-yilda Qarshi pedagogika instituti tashkil topdi. 1950-yilga kelib institutni 268 nafar pedagog tugatdi. Ulardan 101 nafari ayollar edi. 1951–1952-yillarda esa yana 185 nafar yosh o'qituvchilar ushbu ta'lim muassasini bitirishdi[3].

Qashqadaryo viloyatida 1945-yilning o'zidayoq 445 nafar o'qituvchi malaka oshirish kurslarida, 550 nafari esa sirtqi bo'limda tahsil olayotgan edi[4]. 1949–1950-yillarda esa oliv o'quv yurtlari va texnikumlarda 1158 nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, 1946-yilda Qarshi pedagogika texnikumini 47 nafar boshlang'ich maktab o'qituvchilari, 1948-yilda esa 93 nafar yosh o'qituvchi bitirgan edi. Ammo bular pedagogik kadrlar muammosini hal qilishning dastlabki qadamlari edi, xolos. Agar xalq ta'limi xodimlari ma'lumoti bo'yicha raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1948-yil 1-yanvarda Qashqadaryo viloyatida 2897 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lib, ulardan 89 nafari oliv ma'lumotli, 169 nafari pedagogik institutlarni tugatish arafasidagi, 264 nafari to'liq bo'lmagan oliv ma'lumotli, 1054 nafari o'rta ma'lumotli, 1321 nafari to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotli kadrlar edi. Bularning barchasi Qashqadaryo viloyatida pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni kengaytirishni taqozo etardi. 1949–1950-o'quv yilida pedagogika oliv o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarida Qashqadaryo maktablaridan 146 nafar pedagog tahsil oldi. 1951-yilda esa pedagogika institutlarining sirtqi bo'limiga 224 nafar, o'qituvchilar malakasini oshirish institutlariga 75 nafar, pedagogika kollejlarida 452 nafar talaba o'qishga qabul qilindi. O'qituvchilarni marksizm-leninizm g'oyasi va kommunistik mafkura ruhida ushlab turishga ham katta e'tibor berib borildi. Masalan, 1951-yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati o'qituvchilari uchun viloyat va tuman partiya qo'mitalari, shuningdek, "Bilim" jamiyati ma'ruzachilari tomonidan 14,5 ming kishi ishtirokida idealistik ruhda 64 marta

ma’ruzalar o‘qildi. Bu kabi harakatlarlar tom ma’noda pedagog kadrlarni va o‘quvchilarni kommunizm yo‘lidan “chalg‘imasligi” uchun xizmat qilishi kerak edi.

Viloyatdagi ayol o‘qituvchilar soni ham asta-sekin o‘sib bordi. 1951–1952-yillarda Qashqadaryo maktablarida 3375 nafar o‘qituvchi bo‘lib, shundan 1035 nafar xotin-qizlar o‘qituvchi ishlagan.

Bu davrga kelib maktablarga otalik yordami bir qadar ko‘paydi. Jamoatchilikning e’tibori maktablar tarmog‘ini kengaytirish, ularda ta’lim-tarbiya ishlarini marksizm-leninizm ruhida tashkil etishga qaratildi. “Politotdel” kolxozi a’zolarining tashabbusi bilan 2 ta yangi maktab qurildi. Qamashi tumanidagi Qorabog‘ qishloq sovetida umumiy ta’lim uchun 22 sentner bug‘doy, Chim qishloq sovetidagi “Kommuna” kolxozida 6000 rubl pul ajratildi. Qarshi tumani Dasht qishloq sovetidagi “Oktabrning 14 yilligi» kolxozi 10 ming rubl pul, Qarshi tumani Obidida qishloq sovetidagi «Oktabr 20 yilligi» kolxozi 2000 rubl pul ajratdi. Qarshi shahri bo‘yicha 28 ming rubl pul to‘plandi. Bunda Qarshi non zavodi ishchilari, viloyat harbiy komissariati, viloyat suv xo‘jaligi va boshqa tashkilotlarining xodimlari katta hissa qo‘shdilar[5].

Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi tumanlari mehnatkashlari maktablarni tiklashga katta yordam berdilar. Chiroqchi tumani mehnatkashlari umumiy ta’lim fondiga 30 ming rubl pul to‘pladilar. Birgina Kitob tumanidagi Paxtaobod qishloq soveti mehnatkashlari o‘z kuchlari bilan 2 ta yangi maktab qurdilar va jihozladilar. Bu borada Koson tumani mehnatkashlari ham namunali ish qildilar. Ular tuman bo‘yicha umumiy ta’lim fondiga 39,7 sentner bug‘doy, 19 bosh mayda mol, 3006 juft poyabzal, 99 komplekt issiq kiyim va boshqa zarur narsalar to‘pladilar[6].

Viloyatda Ikkinci jahon urushidan so‘ng maktablar va undagi o‘quvchilar soni orta bordi. Bundan tashqari o‘qituvchilar soni ham ortib, oliy ma’lumotlilari ko‘paydi. 1945–1946-o‘quv yilida 2682 o‘qituvchi bo‘lib, shundan 71 kishi oliy, 1538 kishi o‘rta ma’lumotli bo‘lgan bo‘lsa, 1950–1951-o‘quv yilida viloyat maktablarida 3686 o‘qituvchi ishlab, shundan 172 nafari oliy, 884 nafari o‘rta ma’lumotga ega edi. Bu shuni ko‘rsatadiki, oliy ma’lumotli o‘qituvchilar salkam ikki marta ko‘payib, o‘rta ma’lumotli o‘qituvchilar besh yil ichida 954 kishiga kamaydi. Buning natijasida 1950–1951-o‘quv yilida viloyat maktablarida o‘zlashtirish 85,6 foizni tashkil etdi[7] yoki 1945–1946-o‘quv yilidagidagiga nisbatan 35,6 foizga ortiq bo‘ldi. Shu yillar ichida 10-sinfni tamomlovchi o‘quvchilar soni ham orta bordi. Masalan, 1945–1946-o‘quv yilida 70 kishi 10-sinfni tamomlagan bo‘lsa, 1950–1951-o‘quv yilida 674 kishi tamomladi.

Xalq maorifi sohasida yuz bergen bu o‘zgarishlar maktablarda sovetcha ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, yoshlarni umumiy ta’limga kengroq jalb qilish imkonini berdi.

KPSSning 1952-yilning oktabrida bo‘lib o‘tgan XIX syezdi 1951–1955-yillarga mo‘ljallangan besh yillik rejalar Direktivalarini qabul qildi. Bu Direktivalarda xalq maorifini

rivojlantirish, yetti yillik ta’lim maktablarini mus- tahkamlash, 10 yillik o‘rta ta’limni kengaytirish va politexnik ta’limga o‘tib borish vazifasini ham qo‘ydi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda umumiy majburiy ta’limning bajarilishida juda katta qiyinchiliklarga duch kelingan edi. Bu davrda ko‘pgina maktab yoshidagi bolalar xalq xo‘jaligining turli sohalarida – zavod, fabrika va qishloq xo‘jaligida frontga ketgan otalari va akalarining o‘rnida ishladilar. Urush tamom bo‘lgandan so‘ng ham dastlabki yillarda xalq xo‘jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlarga bo‘lgan tanqislik sezilib turar edi. Ko‘pgina yoshlarni, ayniqlsa, frontda oila boshliqlari halok bo‘lgan va nogiron bo‘lib qaytgan oilalardagi yoshlarni moddiy manfaatdorlik ko‘proq qiziqtirar edi. Shuning uchun ham ko‘pgina yoshlari maktabdan chetda qolgan edilar. Bu hol majburiy boshlan‘ich va o‘rta ta’lim olinishiga, shuningdek, o‘quvchilarning maktabdagi bilimlarni o‘zlashtirishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi. Shu bilan birga haliyam mahalliy qizlarning o‘qishiga to‘sinqilik qilish hollari ham uchrab turardiki, bu ham umumiy ta’limning bajarilishini qiyinlashtirardi. Masalan, viloyatda 1945–1946-o‘quv yilida rejadagi 90336 bola o‘rniga 87127 bola maktabga tortildi yoki umumiy majburiy ta’lim 87 foizga bajarildi. Kitob, Yakkabog‘, Beshkent, Chiroqchi tumanlarida bu boradagi ahvol ayniqla yomon edi. Bu tumanlarning har birida 1000 dan ortiq bola maktabga tortilmay qolgandi.

1950–1951-o‘quv yilida viloyat maktablarining 5–7-sinflarida 24930 nafar o‘quvchi, 8–10-sinflarida 3698 nafar o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1954–1955-o‘quv yilida 5–7-sinflarida 33549 nafar o‘quvchi, 8-10-sinflarida esa 13441 nafar o‘quvchi ta’lim oldi. Yuqoridagi raqamlar shu yillar ichida 8–10-sinf o‘quvchilarining soni salkam 4 marta ortganligini ko‘rsatadi. Shu vaqt ichida 10-sinfni bitirib chiquvchilar soni ham ortib bordi. 1954–1955-o‘quv yilida 10-sinfni 2269 nafar o‘quvchi, shu jumladan 312 qiz yoki 1954–1955-o‘quv yilidagidan 3,3 marta, 1945–1946-o‘quv yilidagidan esa 32,4 marta ko‘p o‘quvchi tamomlab chiqdi[8]. Shuningdek, oliy ma’lumotli o‘qituvchilar soni ham ortib bordi. 1945–1946-o‘quv yilida 2682 o‘qituvchidan 71 kishi oliy ma’lumotli bo‘lsa, 1955–1956-o‘quv yilidagi 4709 o‘qituvchidan 475 kishi oliy ma’lumotli edi. Viloyat maktablarini malakali yuqori sinf o‘qituvchilar bilan ta’minalashda Qarshi o‘qituvchilar instituti, boshlang‘ich sinflarni mutaxassis o‘qituvchilar bilan ta’minalashda Qarshi pedagogika bilim yurti katta rol o‘ynadi. Qarshi o‘qituvchilar instituti 1944–1957-yillar ichida rus tili va adabiyoti, o‘zbek tili va adabiyoti, tarix, fizika va matematika fanlari bo‘yicha yuqori sinflar uchun 1127 nafar mutaxassis o‘qituvchilar yetishtirib berdi. Qarshi pedagogika bilim yurtini 1947–1956-yillar ichida 941 kishi tamomlab, viloyat maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshladi.

Xalq ta’limi hamda xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash KPSS ning XX syezdi (1956-yil fevral)dan keyin kengroq ko‘lamda olib borildi.

Qarshi pedagogika institutining o‘qituvchilar tayyorlab berishi yildan yilga ortib bordi. Institutni 1950-yilda 70 nafar, 1955-yilda 180 nafar, 1957-yilda 200 nafar yosh mutaxassis bitirdi. O‘rtacha hisobda 1955-yildagi 180 nafar bitiruvchilar orasida 65 nafar talaba o‘zbek qizi bo‘lishgan[9]. 1944 yildan 1957 yilgacha bo‘lgan yillarda Qarshi pedagogika instituti maktab uchun 1127 nafar o‘qituvchilar yetishtirib berdi. 1956-yil sentabrda mazkur institut davlat institutiga, ya’ni Qarshi davlat pedagogika institutiga aylantirildi. 1958–1959-o‘quv yilida QarDPI talabalari soni 550 nafarga ko‘paydi[10]. Yosh institut qisqa vaqt ichida 1500 dan ortiq malakali o‘qituvchilar tayyorladi. Bundan tashqari Qarshi pedagogika kollejida o‘quvchilar soni ham kengayib bordi. 1947—1957-yillarda mazkur ta’lim maskanini mingdan ortiq yosh o‘qituvchilar tugatdi[11]. Pedagog kadrlar malakasini oshirishda sirtqi ta’lim katta rol o‘ynadi. U ommaviy ravishda pedagoglarni maktablardagi ishlaridan ajratilmagan holda malakasini oshirishda asosiy ta’lim shakliga aylanib bordi. Xususan, 1946–1949-yillarda Qarshi pedagogika kollejining sirtqi bo‘limini 406 nafar, 1953-yilda 199 nafar, 1956-yilda yana 71 nafar pedagog tamomlagan. 1958-yilda Qarsha davlat pedagogika institutida ham sirtqi bo‘lim ochildi. 1946–1958-yillarda hammasi bo‘lib sirtqi ta’lim orqali 7063 nafar talaba boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi toifasini oldi.

Qashqadaryo viloyati pedagogika instituti xodimlari esa 1955–1956-yillarda 790 ta darsni borib tahlil qildilar. Darslarni kummunistik mafkura g‘oyalaridan, idealizmdan chetga chiqmasdan olib borish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Maktablar, texnikumlar, institutlar pedagoglari sovet yoshlarini chinakam “soviet kishisi” qilib tarbiyalashga jiddiy e’tibor berishga undab borildi. Viloyat, shahar va tumanlar metodika kabinetlari tomonidan o‘qituvchilar o‘rtasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Masalan, Beshkent tumani xalq ta’limi metodika byurosi tomonidan maktablar faoliyati va ta’limini sovet mafkurasi asosida tashkil etishda bir qator ishlar amalga oshirildi. Yosh o‘qituvchilar uchun “tajribali” o‘qituvchilardan ochiq darslar, qisqa muddatli seminarlar, individual maslahatlar, dars ishlanmalari ko‘rgazmalari, ma’ruzalar tashkil etildi. “Namunali” o‘qituvchilarning ish tajribasi, ekskursiyalar, metodistlarning guruh va individual maslahatlashuvlar o‘tkazish uchun joylarga tashrif buyurishlari tashkillashtirib borildi.

Qashqadaryo viloyati ta’lim tizimiga 1957–1958-o‘quv yillarida 1000 dan ortiq yosh o‘qituvchilar jalb etildi. Birgina 1958-yilda viloyat o‘qituvchilari Rossiya va Ukrainianing pedagogika o‘quv yurtlarini bitirgan 400 nafar o‘qituvchilarini o‘z saflariga qabul qildilar. Bundan tashqari, 1958-yilda viloyat maktablaridan 895 nafar o‘qituvchi sirtqi ta’limda o‘qidi, 670 nafari esa Respublika malaka oshirish institutida malaka oshirish kurslarini tamomladilar[12].

1950-yilda Qashqadaryo viloyatining 68 nafar o‘qituvchisi Sovet Ittifoqining orden va medallari bilan, ko‘pgina o‘qituvchilar “O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan pedagog” faxriy unvoni bilan taqdirlanishdi[13]. 1960-yilda ta’lim sohasidagi ko‘p yillik hamda benuqson mehnati uchun Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xalq ta’limi xodimlaridan 105 nafari SSSR Oliy Soveti

Prezidiumi qarori asosida orden va medallar bilan taqdirlanishdi. Ulardan 8 nafari Lekin ordeni bilan, 14 nafari Qizil Bayroq ordeni bilan, 23 nafari “Shon-sharaf belgisi” ordeni bilan, 60 nafari “Mehnatdagi jasorati uchun” medallari bilan mukofotlanishdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ikkinchı jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston SSR, xususan, Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi ham boshqa iqtisodiy va ijtimoiy sohalar qatorida idealistik ruhda rivojlantirib borildi. Stalinning totalitar rejimi davrida maktablar, texnikumlar, institutlar chinakam “chinakam sovet kishisi” ni yetishtirib berishlari kerak edi. Aynan ta’lim tizimi orqali marksizm-leninizm g‘oyalari butun Sovet Ittifoqi ong-u shuuriga singdirishga harakat qilindi. Bu esa boshqa millatlarning o‘zligini saqlab qolishlari uchun jiddiy katta to‘sinqa aylandi. Ya’ni Chor Rossiyasi qo‘sishnlari qo‘mondoni Skobelev aytganidek, “Biror bir xalqni yo‘qotish uchun uni qirib yuborish shart emas, o‘sha xalqni madaniyatini, tilini, san’atini, dinini yo‘qotsang bas, bora-bora o‘zi tanazzulga uchraydi”. Sovet davrida ham ta’lim tizimi orqali aynan shunga harakat qilindi.

### **FOYDALANILGAN HUJJAT VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Qashqadaryo haqiqati. 1949-yil, 26-mart.
2. QVDA. 249-fond, 7-ro‘yxat, 6-yig‘ma jild, 233-bet.
3. Qashqadaryo haqiqati. 1952-yil 13-iyul.
4. QVDA. 249-fond, 7-ro‘yxat, 6-yig‘ma jild, 68-bet.
5. Кашкадарьинская правда, 1946-yil, 14-avgust.
6. Кашкадарьинская правда, 1946-yil, 1-sentabr.
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 1-fond, 84-ro‘yxat, 5-yig‘ma jild, 197-bet.
8. Qashqadaryo viloyat partiya arxivi. 1-fond, 116-ro‘yxat, 147-yig‘ma jild, 37–38–42-betlar.
9. Qashqadaryo haqiqati. 1955-yil 1-iyul.
10. QarDPI ilmiy eslatmalari. Qarshi, 1964. 276-279-betlar.
11. QVDA. 133-fond, 5-ro‘yxat, 33-yig‘ma jild, 13-varaq.
12. QVDA. 133-fond, 1-ro‘yxat, 349-yig‘ma jild, 410-bet.
13. Qashqadaryo haqiqati, 1950-yil 14-aprel.